
BUGUN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING TOSHLOQ TUMANI XALQ QABULXONASIDA TUMAN HOKIMI A.DJURABAYEVNING NAVBATDAGI QABULI O'TKAZILDI.

Qabulda fuqarolar asosan, sog'liqni saqlash, ishga joylashish, uy-joy, moddiy yordam, yo'llarni ta'mirlash, ichimlik suvi, elektr ta'minoti hamda tadbirkorlik faoliyatini yuritishga oid murojaatlari hokim ishtirokida ko'rib chiqildi.

Xususan, qabul davomida fuqarolardan 40 ga yaqin murojjatlar kelib tushdi. Murojaatlarning aksariyati joyida hal etilgan bo'lsa, 2 tasiga huquqiy tushuncha berilib, 15 tasi nazoratga olindi.

Qabul jarayonida fuqarolarning murojaatlarini ijobiy hal qilish maqsadida tuman hokimi tomonidan tashkilot va korxonalarining mutasaddi rahbarlariga topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

Toshloq tumani hokimligi axborot xizmati.

2022-08-02 18:00:55